



## **PHILOSOPHICAL AND LEGAL BASIS OF MARRIAGE RELATIONS BETWEEN THE UZBEK PEOPLE**

Kamilov Rozi Rabievich

Samarkand State Foreign Languages docent institutes

### **Annotation**

The legal regulation of marriage is a transformative legal reality in society. The pursuit of the opposite sex, the regulation of sexual relations, in accordance with the norms of international law and, most importantly, taking into account the national mentality, the location of the natural landscape - this means that human rights are fully respected. The establishment of a special regulation on the age of marriage is considered as a legal concern for the families created in the society. The article describes the legal and philosophical basis of the Uzbek people's marital relationship.

**Keywords.** Marriage, family, law, declaration, philosophy, aesthetics, transformation.

O'zbekiston mustaqallik yillarida xalqimizning milliy an'analar, turmush tarzi, mentaliteti, urfodatlari va uning demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'naviy, huquqiy islohotlarni olib bordi. O'zbekiston ushbu xususiyatlarga va xalqaro huquqning umumiy qoidalariga tayangan holda insonparvar, demokratik, huquqiy davlat barpo etishni o'zining maqsadi qilib qo'ygan. Mustaqillikdan keyin jadal rivojlantirilgan qadriyatlardan biri bu oila va nikoh marosimlaridir. Milliy nikoh marosimlari, yoshlarning muqaddas qadriyat bo'lgan oilaga munosabatini huquqiy, ma'naviy-axloqiy tartibga solish dolzarb masalaga aylandi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ifodalangan inson huquqlarini barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida e'lon qilgan. Bu hujjatning 16-moddasida esa: 1. Balog'atga etgan erkaklar va ayollar, irqi, millati yoki diniga qarab biror-bir cheklashsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o'tayotganda ham, nikohda bo'lgan vaqtida ham va nikoh bekor qilinganda ham bir xil huquqlardan foydalanadilar. 2. Har qanday nikoh oila qurayotgan ikki jinsning o'z roziligi va istagi asosida amalga oshishi lozim. 3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasidir va doimo mavjud davlat yoxud o'sha jamiyat tomonidan himoya qilinishi zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ushbu huquqiy mezonlar ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar birligida aks ettirilgan. Dunyo konstitutsiyaviy tajribasini milliy-ma'naviy va huquqiy qadriyatlarimizga, o'zbek xalqining boy tarixiga uyg'unlashтирib, o'ziga xos ijtimoiy-huquqiy makon yaratganligi diqqatga sazovordir. Unda "erkaklar va ayollarning teng huquqliligi" (46-modda), "onalik va bolalikni himoya qilish, erkin va teng huquqli nikoh tuzish, farzandlarni voyaga etkazish va tarbiyalash uchun ota-onalarning bir xil javobgarligi" (64-modda) "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega" (63-modda), deb ko'rsatilgan. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish barobarida fuqarolik jamiyatni talablari huquqiy mezon, ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida ro'yobga chiqmoqda. Nikoh marosimlari, jinslararo tenglik, nikoh yoshining belgilanishi, oila muqaddas qadriyat sifatida jamiyatda alohida institutga aylantirilishi O'zbekistonda oila kodeksini takomillashtirishga olib keldi. Bu, o'z navbatida, nikohga bo'lgan milliy-etnik munosabatlarning huquqiy, ma'naviy-axloqiy va estetik transformatsiyasini yuzaga keltirdi.

Nikoh va oilaviy munosabatlarini tartibga solishda o'n ikki asr davomida Turkistonda amalda bo'lgan diniy-huquqiy tuzim – shariat, musulmon huquqi me'yorlari, hadislarning roli juda katta bo'lib, rus bosqinidan so'ng, "Turkiston ASSR tuzilgach, 1918 yil 16 dekabr kuni qabul qilingan



“Fuqarolik holati dalolatnomalari, nikoh, oila va vasiylik huquqi haqida RSFSR qonunlar kodeksi”da nikoh yoshiga to’lish qizlar uchun 16 yosh, yigitlar uchun 18 yosh deb belgilangan edi”. SHO’rolar davrida ham o’zbek xalqini nikoh yoshiga nisbatan o’zgarishlar bo’ldi, jumaladan, 1928 yilda 7 mart kuni qabul qilingan “Nikoh, oila hamda vasiylik va grajdaniq holati aktlarini yozish haqida qonunlar kodeksi”da qizlar nikoh yoshi 16, yigitlar uchun 18 yosh deb belgilandi. O’zbekistonda mustaqillikdan keyin oila kodeksining 18-moddasiga binoan nikoh yoshi erkaklar uchun 18, qizlar uchun 17 yosh deb belgilangan bo’lib, 1998 yildan e’tiboran “Oila kodeksi”ga ko’ra, qizlar uchun 18, yigitlar uchun 20 yosh – nikohga kirish yoshi etib belgilangan edi. Ammo hozirga kelib, bu ham o’zgardi, ya’ni 15-moddaga ko’ra, endi nikohlanish yoshi avvaldagidek, ayollar uchun 18 yosh etib, erkaklarga ham 18 yosh sifatida belgilangan. Lekin istisno tariqasida muayyan, alohida hollarda nikoh quruvchi yoshiga etmaganlarning qonunan murajaatiga asosan, nikohlanuvchilar yashaydigan shahar yoki tuman hokimi nikoh yoshini ko’pi bilan bir yilga kamaytirib berishi va nikohni davlat ro’yxati orqali qayd etishlari mumkin bo’ladi.

O’zbekistonning mustaqillik yillarida qabul qilingan rasmiy hujjatlarida ifodalangan nikoh va oila qonunlarining asosiy tamoyillari, avvalo, bir fuqaro faqat yagona nikohda bo’la olishi, nikoh tomonlarining ixtiyoriy roziligi va teng huquqligi, oilaviy munosabatlarda bo’luvchilarning shaxsiy va mulkiy huquqi, majburiyatlari borasida tengligi, oilaning jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi, onalikning muhofaza qilinishi va rag’batlantirilishi, ularning munosabatlari davlat tomonidan huquqiy tartibga solinishidan iborat. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, mamlakatimizda qonuniy hujjatlarda ifodalab berilganidek: 1) oila bir umrga quriladi; 2) oilalar yakka nikohlilikka asoslanadi; 3) oilalar ikki tomonning ixtiyoriy roziligi bilan tuziladi; 4) oilada erxotin teng huquqqa ega; 5) oila quruvchilarning yoshi – qizlar hamda yigitlarniki 18 yosh bo’lishi kerak.

Bu nikoh munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish millat genafondini va fuqarolik jamiyati talablari tufayli takomillashib boradi. O’tgan davrdagi huquqiy transformatsiyaga e’tibor bersak, dastlab diniy-shar’iy nikohdagi ko’rsatmalar mentalitet va diniy mansublikdan kelib chiqqan bo’lib, qiz yoki o’g’il bolalarning nikohlanishi balog’at yoshidan boshlangan. Xususan, hozirgi kunda jiddiy xavf deb belgilangan erta nikoh qurish o’z o’tmishiga egaligini ko’rish mumkin. Mustaqillikdan so’ng jamiyat sohalarining ma’naviy isloh etilishi bu sohaga ham jiddiy e’tibor berilishini bildiradi.

Mamlakatimizda o’tgan davrdagi sohalararo islohotlar, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o’zgarishlar o’tmishni chuqur, xolisona tarzda hamda yangicha tafakkur asosida ilmiy tadqiq etishni taqozo etmoqda. Bu to’g’risida O’zbekiston Respublikasini birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek, “...o’z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo’lmash ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur”.

Ijtimoiy-ma’naviy sohalardagi islohotlardan ko’zlangan asosiy maqsad xalqimizning ma’naviy yuksalishiga zamin hozirlash, xususan, yoshlarning barkamol inson bo’lib etishishlariga zamin yaratadigan oila va nikoh munosabatlarini axloqiy-estetik jihatdan takomillashtirish uchun ilmiy asoslangan tizimni ishlab chiqish bo’ldi.

Buning uchun, umummamlakat miqyosida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, yoshlarni nikohga tayyorlash masalasiga e’tibor qaratildi. Chunki nikoh va oila haqida sog’lom estetik tafakkuri shakllangan va rivojlangan yoshlar o’z xalqi tarixi, ma’naviy merosi va bugungi ijtimoiy taraqqiyotiga befarq bo’lmaydi, o’z hayoti va faoliyatini Vatan taraqqiyoti va istiqboli bilan chambarchas bog’laydi, o’zini millat, mamlakat va ijtimoiy-tarixiy hayotdan chetda tasavvur etmaydi. Oila haqidagi estetik tafakkur, birinchi navbatda, nikoh marosimlari bilan bog’liq.



Mustaqillik yillarda jamiyatning yadrosi bo'lgan oila va nikoh marosimlari bo'yicha transformatsion holat aholini jismoniy sog'lomlashtirish, jamiyatda ayollarga bo'lgan munosabat o'zgarishi va "sog'lom ona va sog'lom bola" tamoyili ishlab chiqilishi bilan izohlanadi. Bu tamoyil asosida qator yillar davlat dasturlari ona va bolani sog'lomlashtirish, reproduktiv sog'lomlik, tug'riq yoshidagi ayollarga davlatni ko'magi, sog'lom avlod uchun ordenining ta'sis etilishi singari jiddiy islohotlar olib borildi. O'zbekistonning birinchi Prezidentining tashabbusi bilan jamiyatning genofondini yangilash, nikohning axloqiy mohiyati va estetik evolyusiyasini rag'batlantirish singari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning qo'llanishi *sog'lom nikohdan – sog'lom oilaga va sog'lom bolaga* singari estetik transformatsion jarayonni yuzaga keltirdi. "Sog'lom avlod deganda, - deydi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, - shaxsan men, eng avvalo sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga, ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman". Bu ta'rif mustaqillik yillarda shakllangan nikoh va oila sog'lomligi va yosh avlodni tarbiyasi natijasi o'laroq yuzaga kelgan.

O'zbek nikoh marosimlarining transformatsiyaga uchrashida o'zbek mentalitetidagi va ijtimoiy ongdagi immanent belgilaridagi o'zgarishlar asosiy rolni bajaradi. Bular quyidagilardir:

- o'zbek etnomadaniyatidagi nikoh va oila munosabatlarining tabiiy, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-huquqiy, qadriyatli turmush tarzi bilan bog'liq qonuniyatlarning rivojlanishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy turmushning farovonlashishiga qarab, nikoh marosimlari va taomillarining takomillashishi;

- o'zbek milliy nikoh marosimlarining etnik xususiyatini saqlash, sog'lomlik – go'zallikni zamonaviy unsurlar bilan boyib borishi va "*markaziy urf-odatlarga tortilish*" mexanizmining mavjudligidir.

O'zbek nikoh marosimlaridagi bunday o'zgarishlarni amalga oshiradigan faktorlar: zamonaviy turmush tarziga intilish va jamiyatdagi bo'ladigan o'zgarishlar, xususan, bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvidan. Bular milliy qadriyatlarning immanent belgilari bo'lib, transformatsiyaga tortilishida markaziy etnomadaniy mohiyatini (oila muqaddasligi, erkak kishi qiz bolaga uylanishi, farzand tarbiyalashi) saqlagan holda zamonaviy qadriyatlar bilan boyib, keyingi ijtimoiy muhitga o'sib o'tadi.

Milliy qadriyatlarimizga ko'ra, nikohlanuvchi ikki qarama-qarshi jins sohiblari katta hayotga qadam qo'yishdan maqsadlarini aniq bilishlari kerak. SHu bois, nikohdan o'tayotgan erkak va ayol oila qurishga tayyor bo'lishlari lozim. Buning uchun, birinchi navbatda, ota-onas yoki ularning o'rnini bosuvchi kishilar farzandlarini sog'lom, odobli, mard, irodali, mag'rur, erkaklik mas'uliyatini his qiladigan, mehnatsevar qilib tarbiyalashlari kerak. Zero, o'g'il bolalar ayollar borasida keng va atroficha mushohada qilishga ega bo'lishlari, yigitlarning oilani moddiy jihatdan ta'minlashga mas'ulligi, oilada asosiy ro'zg'or yumushlarini ayol egallashi, erkak esa zimmasidagi barcha og'ir va qiyin ishlarni qilishi, ro'zg'or tebratishni bilishi, oila deb atalgan dargohning muqaddasligini chuqur his qilishi, o'z oilasiga vafodor, farzanlariga mehribon ota sifatida yashashi maqsadga muvofiq.

Qizlarni tushmush qurishga tayyorlab, ularni sog'lom, odobli, aqli, o'zidan kattalarni hurmat qilishini, bilimli, idrokli, zehnli, or-nomusli bo'lishni, hayo-iboda latofatli, ishbilarmon, uy va ro'zg'or tebratishda oqila va kamtarin bo'lishni, mehmon kutishda pazanda, shirinsuxan uy bekasi bo'lishni o'rgatish baxtli turmushga kafolat bo'la oladi. O'zbekistonda nikohni, uning ijtimoiy mohiyati va muddaolariga asosan oilada ertangi farovonlikni ko'zlagan holda tashkil etish, farzand tarbiyasini inobatga olgan holda jamiyatning shartlariga amal qilib, tuzishligi dolzarb sanaladi. Yoshlarning nikohlanishi shartlari, talablari va qoidalari o'zgarishiga hukumat qonunlari asosiy rol o'ynagan. Keyingi paytda nikohga qo'yilgan shartlarning takomillashishi nikohning estetik jihatdan evolyusiyasi davom etayotganidan dalolat beradi.



Nikohdan o'tish shartlarining asosiy omillari quyidagilardir: *birinchidan*, nikohdan o'tish oilani mustahkamlash, turmushni estetikalashtirish; *ikkinchidan*, oilada er-xotin o'rtasidagi munosabatlaro'zaro ishonch, bir-biriga hurmat, kelajak turmushini birga yaratish singari sog'lom oilani qurish; *uchinchidan*, hammani (*mahalla ko'y, qarindosh-urug' olidida -K.R.*), oila oldida o'z bokiraligini namoyon qilish va forig'lanish; *to'rtinchidan*, katta yoshdagilarning maslahati asosida nikoh qurish; *beshinchidan*, er-xotinning o'zлari boshqalarning aralashmasligi asosida huquqiy me'yorlar negizida biron to'sqiniksiz amalga oshirishni hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir. Shu bois, amaldagi oila qonunchiligini nikohning shakliga, ya'ni uni davlatning tegishli organlari tomonidan rasmiylashtirilishiga alohida e'tibor beradi.

Xalqimizning boshqa xalqlarga o'xshamaydigan milliy nikoh marosimlarini o'tkazish bugungi kunda o'zining dolzarbligi va muhim falsafiy ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi. Shu boisdan, yoshlarimizning milliy-ma'naviy merosimiz asosida kamolotga etkazish va qadriyatlarni kelajak avlodlarga o'z holicha etkazib berish masalasi doimiy, uzlusiz, tadrijiy davom etib boraveradi.

O'zbekiston o'z taraqqiyoti yo'lida o'tmish ma'naviy merosga bo'lgan munosabatlarni yangicha falsafiy dunyoqarash va estetik tafakkurni ham rivojlantirdi. Kishilik jamiyatni tarixidan ma'lumki, dastlabki nikoh asosida barpo etilgan oilalar har tomonlama sog'lom, butun va mustahkam bo'lishi bilan birga, farzand tarbiyasida ham tinch va xotirjamlikni o'zida ifodalagan. Shuning uchun ham, o'zbek xalqi milliy nikoh marosimlarining ma'naviy kamolot darajasi o'ziga xos axloqiy ideallarni va go'zal estetik jihatlarni o'zida ifodalab kelgan. Bunday marosim va urf-odatlar asta-sekin keng jamoatchilik tomonidan o'rganilib, keyinchalik qonuniy nikoh marosimi ko'rinishlariga aylanib ketgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qarang: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. –Nyu-York, 1996. –B. 5.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2017. –B. 2,18.
3. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Adolat, 2020. – 8-bet.
4. Rasulova Z.A.Toshkent shahri o'zbeklarining oila-nikoh munosabatlari (XX asr oxiri – XXI asr boshlari) // Tarix fan. nomz... diss. avtoref. –T., 2009.–B. 18.
5. Nikohlanuvchilarga huquqiy psixologik qo'llanma. –T.:Adolat, 2012.–B. 8.
6. Nikoh // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild, 2003. – B. 355-356.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. -T. 7. –T.: O'zbekiston, 1999. – B. 149.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild, –T.: O'zbekiston, 2000. –B. 94.